

Kamoliddin Behzod yaratgan asarlar va maktablar

Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi

San'at bo'limi mudiri: D.To'xtaboyeva



XIV-XV asrlar o'zbek xalqi tarixining oltin sahifalaridan desak, yanglishmaymiz. Amir Temur saltanatida yuzaga kelgan uyg'onish davri, yuksak darajadagi ijodiy va qulay tarixiy muhit tufayli Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod singari ko'plab buyuk olim, faylasuf, shoir, rassom san'atkorlar samarali ijod etishdi. Sizlarga ma'lumot bermoqchi bo'lgan buyuk mutafakkirlarimizdan biri Kamoliddin Behzod shaxsiyati alohida o'rin tutadi. U nafaqat Turonzamin xalqlari madaniyati va san'ati mehri kuchli, madaniyatparvar, ijodkor xalq bo'lib kelgan. Takrorlanmas ijodi, go'zal san'ati va ajoyib mahorati bilan nafaqat Sharq xalqlari balki butun dunyo xalqlari madaniyati tarixida iz qoldirgan, uning taraqqiyoti uchun barakali hissa qo'shgan zabardast musavvir edi. Miniatyura san'atini tilga olganda barchaning ko'z o'ngida Musavvir gavdalanar edi. U ustozlaridan o'rgangan san'at sirlari, soxaga bo'lgan qiziqishi shu darajada nom taratishga turtki bo'lgan.

Ma'lumotlarga qaraganda 1455 yilda Hirotida kambag'al, hunarmand oilada tavallud topgan. Behzod uning ismi yoki taxallusi ekanligi no'malum. Uni Mirak Naqqosh o'z tarbiyasiga oladi, voyaga yetkazadi va o'zining Hirotidagi "Nigoristoni" da (San'at akademiyasida) unga naqqoshlik hunarini o'rgatdi. Behzodning mohir san'atkor bo'lib yetushuvida yana o'sha davrda Hirot muhitidagi bir talay yetuk rassomlar, xattotlar, musiqashunoslarni birlashtirib turgan San'at akademiyasi ham katta ro'l o'ynagan. Mirak Naqqosh Behzodning ustozlaridan biri bo'lib, yana boshqa buxorolik ustoz Jahongirning sogirdi mashxur rassom Pir Sayid Tabriziy edi. Bu ustozlar o'sha davrning mashhur

rassomlari edi. Mirak Naqqosh manzara asarlar ustasi, ajoyib xattot bo'lib tanilgan. Pir Said Tabriziy esa buyuk mussavir edi. Behzodning asarlarida ustozlarining ta'siri katta bo'lgan.

Dastlabki ijodini sulton Husayn Bayqaro saroyida va u yerdagi juda ko'p shoir, olim, san'atkorlarning homiysi Mir Alisher Navoiy boshchiligida boshlangan. San'at va nafosat ishtiyoqi kuchli bo'lgan mussavir o'zining mehnatsevarligi, zaxmatkashligi tufayli Hirotda mashhur mo'jaz rangtasvir ustasi bo'lib yetishgan. Sulton esa uni o'z huzuriga – saroyga jalb qiladi va unga maxsus joy ajratib, ijodiy ishlariga hamma sharoitlarni yaratib beradi. 1487 yilda Kamoliddin Behzod podshoxning shaxsiy farmoni bilan Hirotdagi saltanat kutubxonasining boshlig'i etib tayinlanadi.

Shox farmoni (1487 yil 22 iyul)da shunday deyilgan edi: *“Ijod yaratish korxonasi musavvirning irodasi, yeru osmon nigorxonasi muharrirning qudrati bilan. Xukm qilurmizki, asr nodiri, mussavirlar peshvosi, ustoz Kamoliddin Behzod Xumoyun kutubxonasi ahliga: kitob, naqqosh, muzahhib, jadvalkash, xalkor va zarkublarga, shuningdek, mazkur ishlarga mansub bo'lgan Alloh panohidagi butun mamlakat jamoasiga boshchilik mansabi topshirilsin”*.

Behzod hayotining asosiy qismi temuriylar sulolasining ikkinchi poytaxti bo'lmish Hirotda o'tgan. Ma'lum vaqt Safaviylar taklifiga binoan Tabrizda yashab, ko'plab asarlar yaratdi. Behzod endi butun Hurosonda don taratadi, bu yerdagi barcha naqqoshlar, musavvirlarga bosh bo'ladi, huddi mana shu davrda Behzodning sara asarlar yaratiladi. Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” sigi ishlangan turkum asarlar Husayn Boyqaroning majlislari tasvirlangan-Temur tarixiga bag'ishlangan muqarra (albom), Abduraxmon Jomiyning “Solomon va absol”, Muslihiddin Sa'diyning “Bo'ston” va “Guliston”i, Nizomiddin Ganjaviy “Xamsa” sigi ishlangan rasmlar, Sulton Xusayn Hirotda qurdirgan “Bog'i bexisht” tasviri, Abdurahmon Jomiy portreti, “Sulton Xusayn Mirzo saroyida ziyofat”, “Malikdoro va otboqarlar”, “Yusuf va Zulayho” qissasi, “Masjid ichidagi Munozara” singari yuzlab go'zal ijod na'munalari dunyoga kelgan.

Shox Ismoil Safaviy Hirotning ko'zga ko'ringan hunarmandlari, naqqoshlari, xattotlari qatorida Behzodni ham o'z saroyiga olib ketadi.

U yerda musavvirga qulay shart-sharoit yaratib beradi. Hirotda milliy o'zbek miniatyura maktabini yaratgan rassom tarix zayli bilan Tabriz nafis san'at maktabiga ham asos soladi. Behzod Tabrizda Sulton Muhammad, Oqa Mirak, Mir Said singari turli joylardan kelgan musavvirlarga rahnamolik qiladi. Xususan u Termizda tug'ilib o'sgan Mir Said Aliga o'z mahorati va rassomlik sir asrorlarini ayamay o'rgatadi. Ular o'z navbatida, Behzod vafotidan so'ng XVI asr SHarqning mashhur shaharlari-Tabriz, Qobul,Dehli, Buxoroda ustoz an'analarini muvaffaqiyat bilan davom ettirishdi. Uning natijasida o'zbek miniatyura san'ati tasirida yangi-yangi maktablar yaratildi.

Hozirgi kunda jahonning turli qit'alarida muzey va ayrim kishilarning shaxsiy kolleksiyalarida saqlanayotgan Kamoliddin Behzod qalamiga mansub "Oriflar zikri", "Bir kampir va bir yigit", "Bahrom Go'r ovda", "Sulton Husayn saroyida ziyofat" asarlari va Muhammad Shayboniyxon shoir Abdullaxon Hotifiy, shoir Abdurahmon Jomiylar portret tasvirlari realistik uslubdagi shox asarlar tariqasida allaqacchon umumjahon madaniy mulkiga aylanib ulgurgan.

ADABIYOTLAR

- 1.San'at jurnal.2/2013 yil soni.
- 2.San'at O'zbekiston Badiiy Akademiyasi jurnali 1/2018 yil №78
- 3.Tamaddun Tariximizni o'rganamiz 6-son 2023 y
- 4.Namangan sadosi gazeta 3 soni aprely'.
5. Namangan viloyati me'moray obidalar sirlari. Namangan nashriyoti I.YU. Yusupov. E. Yu. Mirzaliev
6. Namangan viloyati ziyoratgoxlari.Namangan shaxri 2015 y. L. Axmadaliev